

O‘zbekiston
Metama'lumot
Bandlik

Ishlab chiqilgan sana: 28.02.2019 yil

Oxirgi yangilangan sana: 23.09.2021 yil

0. Asoslar

0.1 Qonuniy asoslar

0.1.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi 2021-yil 11-avgustda qabul qilingan “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiq mustaqil ravishda o‘z faoliyatini yuritadi.

Ushbu Qonunning rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikani tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o‘rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikani tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

2017-yil 2-sentyabrda tasdiqlangan va Davlat statistika qo‘mitasining vakolatlari, funktsiyalari va tarkibini aniqlab beradigan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida [Nizom](#)”ga muvofiq Davlat statistika qo‘mitasi milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas‘ul, shuningdek ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatish bo'yicha asosiy organ bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistika uslubi bilan ta'minlash vazifalarini bajaradi.

Rasmiy statistika to‘g‘risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq davlat statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma'lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;
- statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o‘tkazish va olingan birlamchi ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;
- jismoniy shaxs bo‘lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag‘batlantirishni amalga oshirish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni so‘rash hamda olish;
- rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo‘lgan statistika ma'lumotlarini yig'ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;
- statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;

- statistika ma'lumotlarini taqdim etish bilan bog'liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;
- statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qonunga muvofiq o'z vakolatlari doirasida qo'llash.

2017-yil 12-sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar Xalqaro Valyuta Fondining kengaytirilgan umumiy ma'lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT)ga to'g'ri kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi kerak.

0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga asosan rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko'ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma'lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan bo'linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar o'zlarida mavjud bo'lgan statistika ma'lumotlarini va (yoki) ma'muriy ma'lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasiga asosan, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko'rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo'yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo'yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

0.1.3 Respondentlar individual ma'lumotlarining maxfiyligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma'lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma'lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud

muhokamasi, ma'muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo'jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida Nizomda, Davlat statistika qo'mitasi yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining statistika kuzatuvlarini olib borish va olingan ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish huquqiga ega ekanligi hamda olingan statistik ma'lumotlarning maxfiylikini va davlat sirlariga ega bo'lgan statistik ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlashi belgilab qo'yilgan.

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik printsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasining har bir xodimi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 14-moddasiga asosan, davlat statistika organlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi [kodeksining](#) 215-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo'lgan hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o'tkazish chog'ida respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to'liq ma'lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi shart.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish

Respublika miqyosida bandlik bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirishni Demografiya va mehnat statistikasi Boshqarmasi, mehnat resurslari balansi, bandlik va mehnatga haq to'lash ko'rsatkichlarini shakllantirish va taxlil etish bo'limi xodimlari amalga oshiradi, shuningdek viloyat darajasidagi ushbu ko'rsatkichlarni viloyat statistika Boshqarmasi demografiya va mehnat statistikasi bo'limlari xodimlari shakllantiradi.

Mehnat resurslari balansi, bandlik va mehnatga haq to'lash ko'rsatkichlarini shakllantirish va taxlil etish bo'limida 7 ta xodim, viloyat boshqarmalari demografiya va mehnat bo'limlarida o'rtacha 5 tadan xodim ishlaydi.

Umuman bandlik bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirish bo'yicha qo'yilgan topshiriqlarni bajarish uchun xodimlar soni yetarli, xodimlar saqlash va ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha qo'yilgan topshiriqlarni bajarishni ta'minlaydi.

Hamma xodimlar oliy ma'lumotga ega. Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti doimiy 2 yilda 1 marta xodimlarni o'qitish ishdagi ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlashga va rivojlantirishga yordam beradi.

Har bir ish o'rni lokal tarmoqqa ulangan shaxsiy kompyuter bilan ta'minlangan. Programma ta'minoti davriy yangilanadi, qo'yilgan va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan masalaga javob beradi. Mehnat statistikasi bo'yicha statistika dasturida ko'zda tutilgan ishlarni bajarish uchun taqdim etilayotgan moliyaviy resurslar yetarli hisoblanadi.

1. Beg'arazlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga asosan, rasmiy statistikasining asosiy printsiplari, jumladan beg'arazlik va xolislik hisoblanadi.

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunining 13-moddasiga asosan, Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari davlat statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Hududiy statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo'limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo'lib, bevosita vakolatli davlat organiga bo'ysunadi.

Mazkur statistik ma'lumotni ishlab chiqishda boshqa davlat organlarining aralashishiga yo'l qo'yilmagan va kasbiy mustaqillik to'liq ta'minlangan.

Kadrlarni tanlab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda, ularning statistika sohasida tajribasi va kasbiy malakasi e'tiborga olinadi. Boshqarma xodimlari malakasini oshirish Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslarida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslari, o'quv-amaliy seminarlarda ishtirokini ta'minlash orqali ta'minlanadi. Boshqarma xodimlari Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tashkil etilgan o'quv kurslarida ma'ruzalar bilan ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalarida Boshqarma xodimlarining ilmiy maqolalarini e'lon qilib borish tashkil etilgan.

1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 33-moddasiga muvofiq:

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta'minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida ma'lumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish, ma'lumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bog'lashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni,

shuningdek yakuniy ma'lumotlar to'plamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika ma'lumotlarining manbalari va ularni tayyorlash usullari hamda rasmiy statistika ma'lumotlarining sifati to'g'risida metama'lumotlar yordamida xabardor qilinadi.

1.1.3 Statistika ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risidagi Nizomda (15-band) Davlat statistika qo'mitasi rasmiy statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish va talqin qilish holatlarini ko'rib chiqish hamda ular bo'yicha tushuntirishlar berish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan.

Unga ko'ra, Davlat statistika qo'mitasi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistika ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalari va tartibining oshkoraligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga binoan, rasmiy statistikaning asosiy printsiplari tushunarlik va shaffoflik. Statistika ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun hujjatlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonun va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko'rsatilgan statistika dasturi Qo'mita rasmiy veb-saytiga (www.stat.uz) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.lex.uz manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud. Statistika ma'lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Qo'mita rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e'lon qilinadi.

1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Hukumat Davlat statistika qo'mitasi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotlarni ularni e'lon qilish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistika ma'lumotlarni tarqatishda davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi ("Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Qo'mita raisi, uning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlar statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

1.2.3 Statistika ma'lumotlarning atributlari (belgilari)

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Jamoatchilikka e'lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarning Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

1.2.4 Uslubiyatlar, ma'lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o'zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo'mitasi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Davlat statistika qo'mitasi o'z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o'zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

1.3. Axloq me'yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloq me'yorlari bo'yicha ko'rsatmalar

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalari tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik printsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Davlat statistika qo'mitasi xodimi individual ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Uslubiyat

2.1 Konsepsiya va tushunchalar

2.1.1 Konsepsiya va tushunchalar

Bandlik bo'yicha konsepsiya va ta'riflar Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) standartiga asoslangan.

Metodologiya quyidagi xujjatlarga asoslangan:

Xalqaro mehnat tashkilotining bosh konferensiyasida qabul qilingan Bitim 1985 yil mehnat statistikasi to'g'risida (№160) va Tavsiyalar 1985 yil mehnat statistikasi to'g'risida (№170). Iqtisodiy faol aholi statistikasi, bandlik, ishsizlik va to'liqsiz bandlik statistikasi bo'yicha qaror o'n uchinchi Xalqaro mehnat statistikasi konferensiyasida (oktabr 1982 yil) qabul qilingan, 16-Xalqaro mehnat statistikasi konferensiyasida (oktabr 1989 yil) nuqtai nazari maqullangan.

Milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi O'zbekiston Respublikasining 21.12.1995 y. 161-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan;

O'zbekiston Respublikasining Qonuni 13.01.1992 y. N510-XII «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida», Yangi tahriri O'zbekiston Respublikasi 01.05.1998 y. 616-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.12.2017y. 1011-sonli Qarori «Ishga

joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo'jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar o'tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va axolini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to'g'risida»;

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2018 yil 4 maydagi 13-sonli qaroriga ilova «Mehnat resurslari hisobot balansini hisoblash bo'yicha uslubiy Nizom».

Ish bilan band bo'lganlar:

- yollanib ishlayotganlar, shu jumladan ishlarni to'liq bo'lmagan ish vaqti mobaynida yoki uyda ish haqi olib bajarayotgan, shuningdek, haq to'lanadigan boshqa ishga, shu jumladan vaqtinchalik ishga ega bo'lgan fuqarolar;

- kasallik, ta'til, qayta tayyorgarlik, malaka oshirish, ishlab chiqarishning to'xtab turishi tufayli, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq vaqtinchalik ishda bo'lmagan xodim uchun ish joyi saqlanib qoladigan boshqa holatlarda ish joyida vaqtinchalik bo'lmagan fuqarolar;

- haq to'lanadigan lavozimga saylangan yoki tayinlangan fuqarolar;

- o'zini mustaqil ravishda ish bilan ta'minlovchi fuqarolar, jumladan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar, hunarmandlar, dehqon xo'jaliklari, ishlab chiqarish kooperativlari a'zolari, fermerlar, va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchilar;

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, jumladan, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati qo'shinlarida xizmatni, shuningdek, muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolar.

- nodavlat notijorat tashkilotlarida, shu jumladan, o'z faoliyatini qonunchilikka muvofiq amalga oshirayotgan diniy tashkilotlarda ishlovchilar.

2.2 Statistika qamrov

2.2.1 Statistika qamrov

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamrovi o'z ichiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrini oladi.

Tarmoqlar qamrovi: Barcha iqtisodiy faoliyat turlari iqtisodiy faoliyat turlari klassifikatoriga muvofiq IFUT 2 (NACE 2).

Kasbiy qamrov: Barcha kasblar.

Aholi qamrovi: Barcha band aholi.

Mavzu bo'yicha qamrov: Iqtisodiyotda bandlar mehnat resurslari balansida mehnat resurslarining iqtisodiyot tarmoqlari va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishida keltirilgan.

2.2.1.2 Statistika qamrovdan istisnolar

Jami band aholi soniga kiritilmaydi:

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotganlar;

ishsizlar;

homiladorlik, tug'ish va 3 yoshgacha bola parvarish qilish ta'limidagi shaxslar;

uy bekalari hamda bola va boshqa oila a'zolari parvarishi bilan band bo'lgan shaxslar;

ozodlikdan maxrum etish muassasalaridagi shaxslar;

ixtiyoriy ravishda mehnat bilan band bo'lmagan mehnatga layoqatli shaxslar.

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Ro'yxatga olinmagan faoliyat turlarida bandlar kuzatilmaydi.

2.3 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

Tasniflash: 2016 yilgacha milliy klassifikator bo'yicha tasniflash olib borilgan, 2017 yil 1 yanvardan Umumdavlat iqtisodiy faoliya turlari klassifikatoriga muvofiq IFUT 2 (NACE 2).

Shuningdek bandlik ma'lumotlari jins va hududlar bo'yicha jamlanadi.

2.4 Hisobga olish asoslari

2.4.1 Baholash

Band aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish manbai bo'lib korxonalar va tashkilotlardan kelib tushadigan davlat statistika hisobotlari, mehnat organlari tomonidan maxsus savolnoma bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari, vazirlik va idoralar ma'lumotlari hisoblanadi.

2.4.2 Hisobga olish asosi

Ma'lumotlar Davlat statistika organlariga yuridik shaxslar tomonidan topshiriladigan statistik kuzatuvlari asosidagi ma'lumotlar; davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari; mehnat organlari tomonidan bandlik masalalari bo'yicha o'tkaziladigan kuzatuvlar ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha iqtisodiyotda jami band aholining yillik o'rtacha soni yilda bir marta hisoblanadi. Dastlabki ma'lumotlar jami band aholi soni bo'yicha har chorakda (hisobot davriga o'rtacha) hisoblanadi.

3. Aniqlilik va ishonchlik

3.1 Birlamchi ma'lumotlar

3.1.1 Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish asoslari

Band aholi sonini hisob-kitobi ma'lumotlari bazasi:

- korxonalar va tashkilotlarning ishlovchilari to'g'risidagi ma'lumotlari;
- bandlik masalalari bo'yicha o'tkaziladigan kuzatuvlar ma'lumotlari;
- soliq organlari ma'lumotlari;
- kunduzgi ta'lim shaklida ta'lim olayotganlar o'quv muassasalarining davlat statistika

kuzatuvlari ma'lumotlari.

Ma'lumotlarni yig'ish kompleks dastur doirasida amalga oshiriladi.

Boshlang'ich ma'lumotlar kelib tushadi:

- barcha xo'jalik sub'ektlari mulkchilik shaklidan qat'iy nazar quyidagi hisobotlarni: mehnat hisoboti (choraklik, yillik), kichik tadbirkorlik sub'ektlari;
- hududlar kesimida ishga joylashtirish (choraklik, yillik) bo'yicha Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari. Ushbu hisobotda ro'yxatga olingan ishsizlar to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi;
- O'zbekiston Respublikasi soliq qo'mitasining soliq xizmati organlarida ro'yxatga olingan yakka tartibdagi tadbirkorlar to'g'risida ma'lumotlar.

3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Statistik qamrov, klassifikatsiya, baholash va boshlang'ich ma'lumotlarni hisobga olish davri talab qilinadigan ta'riflar parametriga yetarli darajada yaqin keladi.

3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

Ma'lumotlarni yig'ish dasturi ularni o'z vaqtida olishni ta'minlaydi.

Statistika dasturida belgilangan muddatda davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlarni har chorak yakuni bo'yicha jami respublika bo'yicha, viloyatlar kesimida va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqadi.

Jami band aholining o'rtacha yillik soni to'g'risidagi ma'lumot hisobot yilidan keyingi yilning 20 iyunda, har chorakdagi baholash hisobot davridan keyingi oyning 25 sanasida tayyorlanadi.

3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

Ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasi hamda xududiy statistika boshqarmalarida nazorat va tahlil qilinadi. Xatoliklar aniqlanganda ma'lumotlarga aniqlik kiritiladi va to'g'rilanadi.

3.3 Statistik usullar

3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar

Statistik jarayonlardagi foydalanilayotgan usullar ma'lumotlarni qayta ishlashdagi xatoni kamaytirishga imkon beradi.

Jami band xodimlar soniga quyidagilar kiradi:

- yollanib ishlayotganlar, shu jumladan ishlarni to'liq bo'lmagan ish vaqti mobaynida yoki uyda ish haqi olib bajarayotgan, shuningdek, haq to'lanadigan boshqa ishga, shu jumladan vaqtinchalik ishga ega bo'lgan fuqarolar;
- kasallik, ta'til, qayta tayyorgarlik, malaka oshirish, ishlab chiqarishning to'xtab turishi tufayli, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq vaqtinchalik ishda bo'lmagan xodim uchun ish joyi saqlanib qoladigan boshqa holatlarda ish joyida vaqtinchalik bo'lmagan fuqarolar;

- haq to'lanadigan lavozimga saylangan yoki tayinlangan fuqarolar;
- o'zini mustaqil ravishda ish bilan ta'minlovchi fuqarolar, jumladan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar, hunarmandlar, dehqon xo'jaliklari, ishlab chiqarish kooperativlari a'zolari, fermerlar, va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchilar;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, jumladan, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati qo'shinlarida xizmatni, shuningdek, muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolar.
- nodavlat notijorat tashkilotlarida, shu jumladan, o'z faoliyatini qonunchilikka muvofiq amalga oshirayotgan diniy tashkilotlarda ishlovchilar.

3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar

Ma'lumotlarga tuzatish kiritish va qayta ishlash asoslangan usullar yordamida amalga oshiriladi. Yakuniy ma'lumotlarni shakllantirishdan oldin dastlabki ma'lumotlarga tuzatishlar kiritiladi.

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash

Choraklik band aholi soni hisobini taqqoslash iqtisodiyotda bandlarning yillik o'rtacha soni hisobi va yillik mehnat resurslari balansi tuzilganidan so'ng amalga oshiriladi.

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash

Yakuniy va oraliq statistik ma'lumotlar muntazam ravishda baholanadi va solishtirib boriladi. Farq mavjud bo'lgan taqdirda ularni bartaraf etish choralarini ko'riladi.

Band aholi soni choraklik hisobi keyingi yilning iyun yillik o'rtacha band aholi soni hisoblanganda qayta ko'rib chiqiladi.

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish

Oraliq ma'lumotlardagi statistik farqlar tekshiriladi va baholanadi.

Yakuniy statistik ma'lumotlarda statistik farqlar va boshqa ko'rsatkichlardagi mavjud muammolar o'rganiladi. Yig'ma ma'lumotlarni o'tgan chorak ma'lumotlari bilan solishtirish amalga oshiriladi.

Avvalgi nashr etilgan ma'lumotlarda nomuvofiqlik mavjud bo'lsa, keyingi ma'lumotlarga o'zgartirish kiritiladi.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish

Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish tizimli ravishda choraklik davriylikda o'tkaziladi va uning natijalari ichki statistika ishlarida hisobga olinadi.

Band aholi sonini choraklik baholash o'rtacha yillik bandlar soni shakllantirilgandan so'ng, hisobot yilidan keyingi yilning iyun oyida qayta ko'rib chiqiladi.

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o‘z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik

Bandlik bo‘yicha ma’lumotlar choraklik va yillik shakllantiriladi, bu MTUT XVF talablariga mos keladi.

4.1.2 O‘z vaqtidaligi

Har choraklik baholash hisobot davridan keyingi 25 kunida amalga oshiriladi, yillik ma’lumotlar kelgusi yilning iyun oyida tayyor bo‘ladi.

4.2 Qiyosiylik

4.2.1 Ichki qiyosiylik

Statistik ma’lumotlar davriylik, ichki qiyosiylik asosida tavsiflanadi.

4.2.2 Vaqt bo‘yicha qiyosiylik

Ma’lumotlarning qiyosiy davriy qatorlari mavjud bo‘lib, bandlar sonining dinamikasi 1991 yildan boshlab shakllantiriladi.

2016 yilgacha bandlarning taqsimlanishi milliy tasniflagich tizimida, 2016 yildan iqtisodiy faoliyat turlari tizimi (IFUT, red.2, NACE rev.2 ga asoslangan) orqali amalga oshirilgan.

4.2.3 Sektorlar va sohalar o‘rtasidagi qiyosiylik

Statistik ma’lumotlar boshqa manbalardan olingan ma’lumotlar bilan kelishilgan (mehnat, soliq organlari va boshqalar).

4.3 Ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqish

4.3.1 Ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqish jadvali

Ma’lumotlarni ko‘rib chiqish davri oldindan aniqlanadi. Dastlabki va yakuniy ma’lumotlarni tayyorlash muddatlari har yilgi ishlab chiqiladigan statistika dasturiga asosan aniqlanadi.

Iqtisodiyotda bandlar soni bo‘yicha choraklik ma’lumotlarning tegishli davrga nisbatan o‘shish sur‘atining o‘zgarishini faqat mehnat resurslari balansi va iqtisodiyotda bandlarning o‘rtacha yillik soni tuzilgandan so‘ng aniqlanadi.

Qayta ko‘rib chiqilgan iqtisodiyotda bandlar soni bo‘yicha ma’lumotlar barcha nashrlarda keltiriladi.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko‘rib chiqilgan ma’lumotlarni aynan shu toifasi bo‘yicha belgilash

Ma’lumotlar taqdim etish vaqtida foydalanuvchilarga ma’lumotlar dastlabki ekanligi ma’lum

qilinadi.

Dastlabki ma'lumotlar nashr etilayotganda tegishli izohlar yoziladi.

4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish

Ko'rilayotgan ma'lumotlarning o'tgan davrlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslanganligi tahlil qilinadi, bu esa ma'lumotlarning ishonchliligini baholash imkonini beradi. Statistik nashrlarda o'tgan yilgi alohida ko'rsatkichlar ko'rib chiqilayotganligi ko'rsatiladi.

5. Qulayligi

5.1 Ma'lumotlar

5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish

Ma'lumotlar taqdim etish shakli foydalanuvchilar talabiga mos keladi (jadvallar, dinamik qatorlar, diagrammalar va boshqalar).

Statistik nashrlarda jadval va grafik ko'rinishida bandlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, mulkchilik shakli, shahar va qishloq va jinslar kesimidagi ma'lumotlari keltirilgan.

Qisqa uslubiy tushuntirishlar keltirib o'tiladi.

5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik to'plamlari orqali taqdim etiladi:

- «O'zbekiston raqamlarda»
- «O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami»
- «O'zbekistonda ijtimoiy taraqqiyot va hayot darajasi»
- «O'zbekistonda mehnat va bandlik»
- «O'zbekiston Respublikasida ayollar va erkaklar» va boshqalar.

Bundan tashqari, statistik ma'lumotlar foydalanuvchilarning so'roviga ko'ra taqdim etiladi.

5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

5.1.2.3 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

«O'zbekiston Respublikasining statistik holati» (o'zbek, rus va ingliz tillarida).

5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Foydalanuvchilarning maxsus so‘rovlari bo‘yicha jadvallar.

5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

Har chorak veb-saytda «O‘zbekiston Respublikasining statistik holati» chop etiladi.

5.1.3. Ma’lumotlarni e’lon qilish jadvali

5.1.4 Bir vaqtning o‘zida e’lon qilish

5.1.5 So‘rov bo‘yicha ma’lumotlarni tarqatish

O‘zbekiston Respublikasi «Rasmiy statistikasi to‘g‘risida»gi Qonun, «O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida»gi Nizom, statistik ma’lumotlarni tayyorlash va taqdim etish ishlarini tashkil etish Reglamentiga asosan statistik ko‘rsatkichlar foydalanuvchilarga ularning so‘roviga asosan belgilangan tartibda taqdim etiladi. Statistik ma’lumotlar jismoniy yoki yuridik shaxslarning yozma so‘roviga asosan bosma yoki elektron jadval, statistik to‘plam, byulleten, ekspres-ma’lumot ko‘rinishida taqdim etiladi.

5.2 Metama’lumotlar

5.2.1 Konseptsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma’lumotlar manbasi va statistik usullar to‘g‘risidagi hujjatlar va ma’lumotlarni tarqatish

Qo‘mita veb-saytida statistik ko‘rsatkichlarning qanday shakllanishi va hisoblanishi bo‘yicha uslubiy nizom joylashtirilgan.

Bitim ma’lumotlari, statistik qamrov, tasniflar, ma’lumotlar manbai va statistik uslublar asosiy ko‘rsatkichlarga uslubiy tushuntirish ko‘rinishida statistik to‘plamlarda aks ettirilgan.

5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko‘rsatish

5.3.1 Aloqa bog‘lash bo‘yicha ma’lumotlarni tarqatish

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Mehnat kuzatuv bo‘yicha statistik shakllari takomillashtirildi.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

Davlat statistika qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi bilan o‘zaro bandlik bo‘yicha ma’lumotlar almashinuvini takomillashtirish bo‘yicha maxsus dasturiy ta’minot ishlab chiqish.

9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O‘rta muddatli

Mehnat bo‘yicha statistika hisobotlarida kasbiy ma’lumotlarni aks ettirish.

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko‘makka talab – Qisqa muddatli

Statistika dasturi asosida moliyalashtirish ta’minlangan.

9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko‘makka talab – O‘rta muddatli

O‘rta muddatli rejalarni amalga oshirish uchun xalqaro tavsiyalar va tajribalarni o‘rganish bo‘yicha texnik yordam zarur bo‘ladi.

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

F.I.O.:	Yuldoshev Zoyir Toshkanovich
Lavozim:	Boshqarma boshlig'i
Bo'linma:	Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Manzil:	Mustaqillik 63
Shahar/region:	Toshkent shahri
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	998 71 2028065
Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	998 71 2028153
Elektron manzil:	z.yuldoshev@stat.uz